

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANIDA QUVVATI 100 MVt BO'LGAN QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYASINING TEXNIK TAVSIFLARI VA SALOHIYOTLARI TAHLILI

Sarsenbayev Dauletbay Baktibayevich

O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi
energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

d.b.sarsenbaev@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy viloyati Karmana tumanida quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasining texnik tavsiflari va salohiyotlari tahlili bo'yicha yozilgan.

Kalit so'z: quyosh energiyasi, fotoelektrik stansiya, elektr energiya, texnik tavsiflari va salohiyotlari.

Avvalo, ushbu loyiha doirasida qisqa muddatda – bir yarim yil ichida katta hajmdagi ishlar bajarilganini ta'kidlash lozim. Xususan, 110 mln dollar investitsiyalar o'zlashtirilib, 300 mingta quyosh panellari o'rnatilgani chindan ham sanoatimiz tarixida juda katta voqeadir.

SH.M.Mirziyoev

O'zbekiston tarixida birinchi marta quyosh elektr stansiyasini qurish va undan foydalanish uchun xorijiy investorni tanlash bo'yicha o'tkazilgan kimoshdi savdosi, Jahon banki guruhi tartib-taomillariga muvofiq o'tkazilgan tender savdolari natijalariga ko'ra, "Abu Dhabi Future Energy Company PJSC - Masdar" Birlashgan Arab Amirliklarining kompaniyasi g'olib deb topilgan va ular 1 kVt soat uchun 2,679 AQSh tsenti miqdorida dunyoda eng past tariflardan birini taklif qilgan.

2019-yil 8-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Investor o'rtasida investitsiya loyihasini loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va ishlatish maqsadida fotoelektrik stansiyaning loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va 25 yil davomida ishlatish bilan bog'liq Investor majburiyatlarini nazarda tutuvchi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Investitsiya bitimi tuzilgan va investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun Investor tomonidan O‘zbekiston Respublikasida Investor nomidan ish yuritadigan “Nur Navoi Solar” mas’uliyati cheklangan jamiyati loyiha kompaniyasi ta’ sis etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-apreldagi PQ-4677-son “Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan fotoelektrik stansiyani qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori yana bir karra huquqiy asosi mustahkamlangan [1], [3].

2021-yil 27-avgust kuni Navoiy viloyati Karmana tumanida 100 MVtli quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilgan va u Navoiy shahridan 35 km masofada uzoqlikda joylashgan.

Loyihaning qurilish jarayoni 3 ta asosiy qismdan iborat. Bular quyidagicha:

- Birinchisida panellar o‘rnatiladi;
- Ikkinchisida yuqori kuchlanishli moslamalarni o‘zaro bog‘lovchi qurilmalar tashkil etadi;
- Uchinchi qismga ishni nazorat qilish bo‘limi kiradi.

Quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishida pudratchi korxonalar Xitoy Xalq Respublikasining “Sepko III” Ltd kompaniyasi obektda texnologik uskunalar, panellar, inverter va transformatorlarni o‘rnatish ishlarini olib borgan va ilg‘or ishlab chiqaruvchilarning eng samarali panellaridan (1-rasm) foydalangan.



1-rasm. JA solar moduli (450 Vt) ning passport ma‘lumotlar ko‘rinishi.

Shuningdek, Single Access Tracking System deb ataluvchi texnologiya esa, quyoshning kunduzgi vaqtdagi harakatini ta‘qib qilish imkonini beradi. Bunda fotoelektr panellar o‘rnatilgan moslamalar quyosh harakati bo‘ylab yarim aylana shaklida harakatlanadi.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Uning texnik tavsiflari quyidagilarni o‘z ishiga oladi:

- Yer maydoni 268 gektar;
- Quyosh panellari 300 ming dona;
- Invertorlar 600 dan ortiq;
- 1000 km.dan ortiq turli kabellar;

Uning texnik salohiyotlari quyidagilarni o‘z ishiga oladi:

- Yiliga 252 mln kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi;
- Kuniga 1 mln kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi;
- O‘rtacha 31 ming oilaning elektr energiyasiga bo‘lgan talabini qondira oladi;
- Buning hisobidan 80 mln m³ tabiiy gaz tejaladi;
- Atmosferaga 160 ming tonna bug‘lanuvchi gazlar chiqishining oldi olinadi [2], [3].

Bu yirik loyiha qayta tiklanadigan energetikani jadal rivojlantirishni ta‘minlash, elektr energiyasi ishlab chiqarish manbalarini diversifikatsiyalash, tabiiy gazdan yoqilg‘i sifatida foydalanishni kamaytirish, shuningdek, elektr energetika tarmog‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra, 2026-yilgacha O‘zbekistonda umumiy quvvati 4000 MVt bo‘lgan quyosh elektr stantsiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan strategik maqsadimizga erishishda va O‘zbekistonning energiya xavfsizligi va diversifikatsiya strategiyasiga ijobiy hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-apreldagi PQ-4677-son “Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan fotoelektrik stantsiyani qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori.
2. M.A.Maxmudov, A.A.Mirzaev, F.F.Sodiqov, J.X.Ishanovlarning 2022-yil 9-12 noyabr kunlari Navoiy viloyati Karmana tumanida quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stantsiyasi xizmat safari.
3. www.minenergy.uz

